

## 数量补语(Shùliàng bùyǔ) Miqdor To’liqlovchilari: Xitoy Tili

### Grammatikasidagi Ahmiyati va Amaliyotlari

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

**Radjabova Madinabonu Raimovna**

**Annotatsiya:** Maqolada taklif etilayotgan tadqiqot materiallaridan xitoy tilini chet tili sifatida o’rgatish, yangi ma’lumotlarning samarali rivojlanishiga ko‘maklashish vositasi sifatida foydalanish mumkinligiga umid bildiramiz. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi miqdor to’liqlovchisini xitoy grammatikasining tarkibiy qismlaridan biri sifatida tasvirlashdir.

**Kalit so’zlar:** To’liqlovchi, 数量补语(Shùliàng bùyǔ), miqdor to’liqlovchisi, 一些, 一点儿, 多了, 得多.

### Kirish

Xitoy tilining grammatikasi o’ziga xos bo’lib, ma’lum bir qat’iyatlilik, aqlning ochiqligi va tayyorlikni talab qiladi. Xitoy tili grammatikasining qiyinchiliklarini tushuntirish ta’lim jarayonidagi asosiy nuqtalardan biridir.

Xitoy tili nafaqat yozuvni, ya’ni ierogliflari, balki ko’pchilik boshqa tillar uchun ekvivalent bo’lmagan grammatikasi bilan ham ajralib turadi. Bizning fikrimizcha, xitoy tili grammatikasida xitoy tilini o’rganishda alohida qiyinchiliklarga olib keladigan juda ko’p murakkab masalalar mavjud. Masalan, xitoy tili grammatikasida to’liqlovchi. Ushbu maqolada ushbu xususiyatning bir bo’lagi hisoblangan miqdor to’liqlovchisining gapda ishlatilishini aniq ko’rib chiqishga harakat qilingan.

To’liqlovchi gapda asosan fe’lga bog’lanadi va fe’lning natija, daraja, yo’nalish, imkoniyat, holat, miqdor, maqsadini aniqlashtirib, to’ldirish uchun

ishlatiladi.. To'liqlovchilar gapning ma'nosini emas, balki, felning ma'nosini to'liqlab keladi.

Grammatik xususiyatlari:

1. To'liqlovchilar har doim asosiy fe'lidan keyin keladi.
2. Asosan sifat, fe'l, miqdor-sanoq so'zlar va fe'lli birikmalar to'liqlovchi sifatida keladi.
3. Kopincha 得 tuzilmasi asosiy fe'l va to'liqlovchining o'rtasida keladi.<sup>1</sup>

Odatda to'liqlovchi bilan anqlashtirilgan fe'l o'zi bilan to'ldiruvchini ham olib kelishi mumkin.

Miqdor to'liqlovchisi ikki predmet o'rtasidagi miqdor farqini bildiruvchi to'liqlovchi bo'lib, sifatdosh bilan ifodalangan yuklamadan keyin qo'llaniladi.

Masalan,

这件衣服比那件便宜五十元。 Bu kiyim undan ellik yuan arzonroq.

这个西瓜比那个重三斤。 Bu tarvuzning og'irligi unisidan uch kilogramm ko'proq.

他比我大三岁。 U mendan uch yosh katta.

### 1. A 比 B + 形容词 + 补语

Miqdor to'liqlovchilari, aslida, solishtirishdagi farqlarni ko'rsatadi, ular yosh, vaqt, harorat, vazn, maydonlarga oid so'zlar yoki ular nisbatan noaniq miqdorlar bo'lishi mumkin. 一些, 一点儿, 多了, 得多, ya'ni, biroz, ko'proq kabi miqdor so'zlar.

<sup>1</sup> D.M. Djurayev, R.M. Radjabova “XITOY TILINI O'QITISHDA TO'LIQLOVCHILARNING (补语 O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI”, “Xorazm Ma'mun Akademiyasi Axborotnomasi” 2023-4/4, 35-bet

我比你大三岁。Men sendan uch yosh kattaman.

今天比昨天低五度。Bugun kechagidan besh daraja sovuqroq.

这个比那个长一点儿。Bunisi unisidan bir oz uzunroq.

你比我大得多。Sen mendan ancha kattasiz.

上海比北京暖和一些。Shanxay Pekinga qaraganda issiqroq.

今年比去年凉快多了。Bu yil o'tgan yilga qaraganda ancha salqin.

## 2. 主语 + 形容词 + 补语

Bu formula standart qiyosiy gap shakli bo 'lmasada, qiyosiy ma'noni o'z ichiga oladi. Gaplardagi miqdor to'liqlovchilari yuqorida qayd etilgan ikki shaklda qo'llanilishi mumkin.

这件衣服长了一点儿。Bu kiyim biroz uzun.

这双鞋你穿小一点儿。Bu poyabzal siz uchun biroz kichikroq.

这张床舒服一些。Bu to'shak yanada qulayroq.

## Xulosa

Yuqoridagilarning barchasini umumlashtirish uchun shuni ta'kidlash kerakki, ushbu maqola xitoy tili grammatikasida miqdor to'liqlovchisidan foydalanish misollarini qisqacha ko'rib chiqishga harakat qilingan. To'liqlovchilarni o'rganish, Xitoy grammatikasining murakkabligi nuqtai nazaridan, xitoy tilini chet tili sifatida o'qitish metodikasini boyitish va xitoycha jumlaning tuzilishini tushunishni soddalashtirish imkonini beradi. Xitoy tilida to'liqlovchisining qo'llanilishi juda ko'p. To'liqlovchilarning har bir turi predikatni tavsiflashga, harakatning davomiyligini, to'liqligini va ehtimolini ko'rsatishga yordam beradi.



### Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:

1. A practical chinese grammar for foreigners (revised edition) -北京：北京语言大学出版社, 2008, (652 pages)
2. D.M. Djurayev, R.M. Radjabova “XITOY TILINI O’QITISHDA TO’LIQLOVCHILARNING (补语) O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI”, “Xorazm Ma’mun Akademiyasi Axborotnomasi” 2023-4/4, 35-bet
3. Jiang Liping. Standart course HSK3 -北京：北京语言大学出版社, 2009, (190 pages).
4. Сюй Цзиннин; [пер. с кит. К.В. Агеева]. — Москва: Издательство ACT, 2021. — 480 с. — (Школа китайского языка).
5. Тихонова Е.В., Приворотная Т.В., Тагина Е.К. [и др.]. Комплемент в китайском языке. Томск: Издат. дом Томск. гос.ун-та, 2015
6. Zhu Qingming, Modern Chinese Practical Grammar Analysis Second Edition Part 1, Tsinghua University Press, (246 pages).

Research Science and  
Innovation House